

SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022- yil 1- mart holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1- mart holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

3



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

30 690

111,7 %



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

28 871

111,0 %



Yangi tashkil etilgan korxonalar

982


91,1 %



Mamlakatimizda qulay ishbilamonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z ornida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- mart holatiga ko'ra)

5



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

6



Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; - aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(yanvar- fevral oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar- fevral oylarida, birlikda)

7



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi


(2022- yil yanvar- fevral oylarida, umumiyl sonidagi ulushi, foizda)



2022- yil yanvar- fevral oylarida 982 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 581 ta, xususiy korxonalar - 104 ta, oilaviy korxonalar - 250 ta, muassasalar- 27 ta va boshqalar – 20 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yil 1- mart holatiga ko'ra 6 042 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 673 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5 490 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 620 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar- fevral oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 250 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6 taga yoki 0,9 martaga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, 12 502 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 262 taga yoki 22,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 11 869 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 060 taga yoki 21,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2022- yil yanvar- fevral oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 581 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 taga yoki 0,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

9




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, 594 tani tashkil etib, ulardan 578 tasi yoki 97,3 % faoliyat ko'rsatmoqda.

Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 132 taga yoki 29,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar- fevral oylarida viloyati-mizda 15 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

11



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni


(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Jami	4 779	6 082	7 853	9 809	11 869
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	448	650	867	1 407	1 764
Sanoat	754	1 008	1 260	1 561	1 840
Qurilish	771	1 040	1 386	1 584	1 852
Savdo	1 455	1 809	2 425	3 052	3 795
Tashish va saqlash	491	515	591	641	662
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	178	231	310	368	458
Axborot va aloqa	75	84	105	114	143
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	51	70	93	123	167
Boshqa turlar	556	675	816	959	1 188

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2022-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)

12



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Jami	67	215	372	446	578
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	11	62	96	110	126
Sanoat	34	59	98	121	140
Qurilish	1	10	22	26	38
Savdo	10	51	108	137	211
Tashish va saqlash	4	8	7	9	10
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1	7	19	17	22
Axborot va aloqa	1	1	2	2	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	3	4	6	8
Boshqa turlar	4	14	16	18	21

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni**
(2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

13



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2022-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)

14

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Surxondaryo viloyati	578	148	430
Termiz sh.	333	38	295
tumanlar:			
Oltinsoy	7	6	1
Angor	20	5	15
Bandixon	3	1	2
Boysun	8	6	2
Muzrabot	15	6	9
Denov	21	11	10
Jarqo'rg'on	15	8	7
Qumqo'rg'on	11	5	6
Qiziriq	10	1	9
Sariosiyo	19	10	9
Termiz	47	16	31
Uzun	40	20	20
Sherobod	14	8	6
Sho'rchi	15	7	8

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)


15



2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz shahri (17,9 %), Denov (11,9 %), Jarqo'rg'on (8,0 %), Sho'rchi (6,9 %), Qumqo'rg'on (6,8 %), Termiz (6,5 %), Sherobod (6,5 %), Uzun (5,3 %), Sariosiyo (5,3 %), Boysun (4,8 %), Qiziriq (4,8 %), Angor (4,7 %), Muzrabot (4,7 %), Oltinsoy (3,9 %) va Bandixon (2,0 %) tumanlarida hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2022- yil yanvar- fevral oylarida, birlikda)



2022- yil yanvar- fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Termiz sh. (16,1 %), Denov (11,1 %), Boysun (8,5 %), Qumqo'rg'on (8,4 %), Jarqo'rg'on (7,0 %), Sherobod (5,9 %), Sariosiyo (5,9 %), Muzrabot (5,7 %), Sho'rchi (5,0 %), Oltinsoy (4,9 %), Termiz (4,5 %), Qiziriq (4,5 %), Angor (4,4 %), Uzun (4,3 %) va Bandixon (3,8 %) ulushiga ega.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni

(2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz sh. (26,1 %), Denov (9,5 %), Termiz (8,9 %), Jarqo'rg'on (7,2 %), Sherobod (6,1 %), Qumqo'rg'on (5,5 %), Sho'rchi (5,4 %), Boysun (5,2 %), Qiziriq (4,8 %), Angor (4,5 %), Muzrabot (4,3 %), Sariosyo (4,3 %), Uzun (3,5 %), Oltinsoy (2,4 %) va Bandixon (2,2 %) ulushiga ega.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**
(2022-yil 1-mart holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)


17



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2022- yil yanvar- fevral oylarida, birlikda)



2022- yil yanvar- fevral oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Boysun (21,6 %), Denov (12,0 %), Oltinsoy (9,6 %), Termiz sh. (8,4 %), Sherobod (6,4 %), Angor (6,0 %), Qiziriq (5,2 %), Jarqo'rg'on (5,2 %), Sariosiyo (4,8 %), Muzrabot (4,8 %), Termiz (4,4 %), Qumqo'rg'on (3,2 %), Uzun (3,2 %), Sho'rchi (2,8 %) va Bandixon (2,4 %) tumanlari ulushiga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2022- yil yanvar- fevral oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga-vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- oktabrdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- sonli qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main title is "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". The left sidebar lists "RASMIY STATISTIKA" categories such as "Elon qilish taqvimi", "Metamolumotlar", and "Tashqi iqtisodiy foyiliyat". The central search interface has dropdown menus for "Xizmatlar ro'yxati", "Statistik klassifikatsiyalar", and "Korxona pasporti". The right sidebar lists "FOYDALI MA'LUMOTLAR" including "Ahollini ro'yxtarga olish-2022" and "Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar". The footer includes links to "STATISTIKA REGISTR", "STATISTIKA KURSLARI", and "STATISTIKA MATERIALLARI".

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel. (76) 225-65-90**